

Kalit soʻzlar: huquqiy matnlar, terminologiya, parallel korpus, tarjima, lingvistik tadqiqot, intaktik va leksik tafovut.

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy matnlar terminologiyasini parallel korpuslar yordamida tadqiq qilishning asosiy muammolari va ularni yechish yoʻllari tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida xalqaro va mahalliy huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularning oʻzbek, rus va ingliz tillaridagi tarjimalari qoʻllanildi. Maqolada terminologik tafovutlar, sintaktik murakkablik, kam resursli tillar va tarjimon subyektivligi kabi muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish boʻyicha glosariylar, ekspertlar bilan hamkorlik, avtomatlashtirilgan korpus tahlil vositalari va yangi parallel korpuslar yaratish kabi yechimlar taklif qilindi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, parallel korpuslardan samarali foydalanish huquqiy terminologiyani aniq va ishonchli tadqiq etish imkonini oshiradi.

ПРОБЛЕМЫ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ В ТЕРМИНОЛОГИИ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ И НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ

Зумрад Зохиридзоновна Гафарова

Кандидат филологических наук (PhD), доцент

Заведующая кафедрой иностранных языков и социальных наук

Азиатского международного университета,

E-mail: zumradqafarova8668@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: юридические тексты, терминология, параллельный корпус, перевод, лингвистическое исследование, синтаксические и лексические расхождения.

Аннотация: В статье анализируются основные проблемы исследования терминологии юридических текстов с использованием параллельных корпусов, а также пути их решения. В качестве материала исследования были использованы международные и национальные правовые документы, а также их переводы на узбекский, русский и английский языки. В работе выявляются такие актуальные проблемы, как терминологические расхождения, синтаксическая сложность, ограниченность ресурсов для малораспространённых языков и субъективность переводчика. В целях их преодоления предлагаются практические решения, включающие разработку специализированных глоссариев, расширение сотрудничества с экспертами-юристами и лингвистами, применение автоматизированных

инструментов корпусного анализа, а также создание новых параллельных корпусов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективное использование параллельных корпусов значительно повышает точность, последовательность и надёжность лингвистического анализа юридической терминологии.

Kirish. Huquqiy matnlar lingvistik tadqiqotlarda o'ziga xos o'ringa ega. Ular nafaqat tilning struktura va sintaksisini o'rganish uchun, balki terminologiyaning tilaro mosligi, tarjima strategiyalari va huquqiy diskursning xususiyatlarini aniqlashda ham muhim vosita hisoblanadi. So'nggi yillarda parallel korpuslar (parallel corpora) huquqiy matnlarni tadqiq etishda samarali metod sifatida keng qo'llanilmoqda. Parallel korpuslar biror matnning turli tillardagi versiyalarini o'z ichiga oladi va shu orqali terminlarning tarjima barqarorligini, sintaktik tuzilmalarning mosligini, hamda madaniy-konseptual tafovutlarni tahlil qilish imkonini beradi.[2:212]

Biroq, huquqiy matnlarni parallel korpusda tadqiq qilishda bir qator metodologik muammolar yuzaga keladi: tarjima matnining ikkinchi darajali tabiati, tarjimon shaxsiy uslubining ta'siri, kam resursli tillar uchun parallel material yetishmasligi. Ushbu maqolada huquqiy terminologiyani parallel korpus yordamida tadqiq qilishning asosiy muammolari va ularni yechish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Metodlar va materiallar. Ushbu tadqiqotning material sifatida xalqaro va milliy huquqiy normativ hujjatlar tanlandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN) shartnomalari hamda, Yevropa Parlamentining (Europarl) rasmiy matnlari o'zbek, rus va ingliz tillaridagi tarjimalari orqali o'rganilgan. Tadqiqot materiali parallel korpus shaklida tuzildi, bu esa, har bir huquqiy atamaning tillararo ekvivalentligini aniqlash, tarjima barqarorligini baholash va sintaktik hamda leksik tafovutlarni tahlil qilish imkonini berdi. Shu bilan birga, kam resursli tillarda (masalan, o'zbek tili) mavjud bo'lgan parallel matnlarning cheklanganligi tadqiqotning chegaralarini belgiladi. [11]

Tadqiqot quyidagi yondashuvlar asosida olib borildi:

Korpus tahlili: Lingvistik va statistik metodlar yordamida huquqiy terminlar va ularning turli tillardagi ekvivalentlari tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu tahlil tarjimalar orasidagi leksik va sintaktik moslikni aniqlash imkonini berdi.

Terminologik tahlil: Har bir asosiy huquqiy atama bo'yicha tillararo moslik, kontekstga qarab tarjima barqarorligi va semantik aniqlik tekshirildi. Bu yondashuv huquqiy diskursda atamalar ma'nosining uzluksizligini baholashga xizmat qildi.

Muammolarni aniqlash: Tarjima jarayonida yuzaga keladigan asosiy murakkabliklar – sintaktik, leksik va semantik tafovutlar – aniqlanib, ularning tadqiqot natijalariga ta'siri baholandi. [4:110]

Tahlil jarayoni uchun quyidagi vositalar qo'llanildi:

Korpus tahlil vositalari: AntConc va Sketch Engine platformalari yordamida huquqiy matnlardagi terminlar va ularning kontekstual qo'llanilishi aniqlanib, statistika asosida tahlil qilindi.

Kvantitativ va statistik tahlil: Python dasturlash tili va uning pandas hamda NLTK kutubxonalari yordamida terminlarning uchrash chastotasi, tarjima ekvivalentlari taqsimoti va tillararo barqarorlik ko'rsatkichlari hisoblandi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslangan va qayta ishlab chiqilgan natijalar berishini ta'minladi, shuningdek, parallel korpuslarning huquqiy matnlarni lingvistik tahlil qilishda samaradorligini oshirdi. [5:110]

Natijalar. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, huquqiy matnlarni parallel korpuslarda tahlil qilish jarayonida bir nechta muhim muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar terminologik, sintaktik va resursga bog'liq xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

1. Terminologik tafovutlar – Huquqiy atamalar tillararo moslik jihatidan bir xilda bo'lmashligi aniqlangan. Masalan, ingliz tilidagi “equity” atamasi o'zbek tilida kontekstga qarab “adolat”, “muvozanat” yoki “mulkiy tenglik” sifatida tarjima qilinadi. Shu bilan birga, rus tilida bu atama ko'pincha “справедливость” yoki “равенство” shaklida ifodalanadi. Bu tafovutlar nafaqat leksik, balki semantik tafovutlarni ham ko'rsatadi, chunki har bir til huquqiy va madaniy kontekstga xos nuanslarga ega. Fung (2010) va Barik & Smithning (2020) tadqiqotlariga ko'ra, parallel korpuslarda shunday tafovutlar tarjima jarayonida terminlar barqarorligini baholashni murakkablashtiradi. [7:1025]

2. Sintaktik muammolar – Tarjima jarayonida huquqiy matnning murakkab sintaksisi ba'zan soddalashtiriladi yoki o'zgartiriladi. Masalan, ingliz tilidagi murakkab jumlarlar (compound-complex sentences) o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda qisqartirilishi yoki tarkibiy o'zgarishga uchrashi mumkin. Bu esa, terminlarning aniq va bir xil kontekstda tushunilishini qiyinlashtiradi. Tadqiqot davomida kuzatilganki, ayniqsa normativ-huquqiy matnlarda ishlatiladigan passiv konstruktsiyalar va modifikatorlar tarjimada o'zgartirilishi natijasida asl huquqiy mazmun biroz yo'qoladi. S.Johansson (2007) shuni ta'kidlaydiki, sintaktik murakkablikni saqlab qolish parallel korpus tahlilining aniqligi uchun muhim ahamiyatga ega. [2:200]

3. Kam resursli tillar – O'zbek tili kabi kam resursli tillarda parallel korpuslarning yetarli emasligi terminologik tadqiqotlarni cheklaydi. Masalan, O'zbek tilida mavjud bo'lgan rasmiy normativ hujjatlar va ularning tarjimalari soni cheklanganligi sababli, huquqiy atamalarni statistika

asosida tahlil qilish imkoniyati kamayadi. Shu bilan birga, bu holat tilning evolyutsion va regional tafovutlarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bowker (2002) ta'kidlaganidek, kam resursli tillar bilan ishlashda korpusni kengaytirish va standartlashtirilgan glosariylarni yaratish katta ahamiyatga ega. [4:78]

4. Tarjimonning subyektivligi – Tarjimonning shaxsiy uslubi, huquqiy tushunchaga yondashuvi va tajribasi tarjima natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi hollarda tarjimon matnni o'z madaniy konteksti va professional qarashlari asosida qayta shakllantiradi, bu esa parallel korpusdagi ekvivalentlikni buzadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjimon subyektivligi ayniqsa murakkab huquqiy atamalarda — masalan, “fiduciary duty”, “due diligence” kabi atamalarda – ko'proq seziladi. P.Fung va S. Johanssoning tahlillariga ko'ra, bu muammoni kamaytirish uchun terminologik glosariylar va ekspertlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. [7:1025]

Quyidagi omillar terminosistemani tadqiq qilishda asosiy muammolardan biridir:

- Kontekstual tafovutlar: Terminologik tafovutlar faqat leksik xususiyatlar bilan cheklanmay, huquqiy kontekst va amaliy qo'llanilish bilan ham bog'liq. Masalan, “contract” atamasi ingliz tilida umumiy shartnoma ma'nosini anglatadi, lekin o'zbek tilida “shartnoma” so'zi ba'zi hollarda rasmiy-huquqiy hujjatni to'liq ifodalay olmaydi.

- Barqarorlik ko'rsatkichlari: Tadqiqotda statistik tahlil orqali huquqiy atamalarining tarjima ekvivalentlarining uchrash chastotasi aniqlanib, barqarorlik darajasi baholandi. Bu, kelajakda avtomatlashtirilgan tarjima va korpus tahlil vositalarida qo'llanishi mumkin.

Shu tarzda, huquqiy matnlarni parallel korpus yordamida tahlil qilishda yuqorida sanab o'tilgan muammolar e'tiborga olinishi zarur. Bu muammolarni bartaraf etish metodologik asosni mustahkamlash va terminologik tadqiqotlarni yanada ilmiy asoslash imkonini beradi.

Muhokama (Discussion): Yuqorida keltirilgan natijalar huquqiy matnlarni parallel korpuslarda tadqiq qilish jarayonida duch kelinadigan asosiy muammolarni yaqqol ko'rsatadi. Ushbu muammolarni samarali bartaraf etish va tadqiqot sifatini oshirish maqsadida bir nechta yondashuvlar tavsiya etiladi.

Terminologik glosariylar yaratish – Har bir til uchun rasmiy va keng qabul qilingan huquqiy atamalar ro'yxatini tuzish muhimdir. Glosariylar huquqiy atamalarining tillararo ekvivalentligini ta'minlashga xizmat qiladi va tarjimada moslik darajasini oshiradi. Shu tarzda, terminlarning semantik va kontekstual barqarorligi saqlanadi, tarjima jarayonida yuzaga keladigan tafovutlar kamayadi. Barik va Smith (2020)ning tadqiqotlariga ko'ra, glosariylar ayniqsa murakkab va ko'p ma'noli atamalarda tarjima aniqligini oshiradi.

Tarjimon va ekspertlar bilan hamkorlik – Huquqiy matnlarni tadqiq qilish jarayonida tarjimonlar va huquqshunoslar birgalikda ishlashi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv

murakkab atamalarning aniq ekvivalentlarini belgilash, terminologik tafovutlarni kamaytirish va kontekstni to'g'ri saqlash imkonini beradi. Ekspertlarning huquqiy bilimlari tarjima jarayonidagi subyektivlikni kamaytiradi va parallel korpuslar orqali olinadigan natijalarni ishonchli qiladi.

Avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish – Korpus tahlil va tarjima vositalarini qo'llash orqali terminlarning barqarorligi va kontekstual qo'llanilishini avtomatik ravishda tekshirish mumkin. Masalan, AntConc va Sketch Engine kabi platformalar yordamida huquqiy atamalarning uchrash chastotasi, ekvivalentlarining mosligi va kontekstual xususiyatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, Python dasturlash tili va NLTK, pandas kabi kutubxonalar statistik va kvantitativ tahlilni amalga oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Kam resursli tillar uchun korpuslarni kengaytirish – O'zbek tili kabi kam resursli tillarda parallel korpuslarning yetarli emasligi tadqiqot natijalarini cheklaydi. Shu sababli, mahalliy huquqiy matnlar va xalqaro normativ hujjatlar asosida yangi parallel korpuslar yaratish lozim. Bu nafaqat terminologik tadqiqotlarni rivojlantiradi, balki kam resursli tillarning huquqiy leksikasi va sintaksisini kengroq o'rganishga imkon beradi.

Madaniy va huquqiy kontekstni hisobga olish – Huquqiy terminologiyani tadqiq qilishda tilning madaniy va huquqiy konteksti doimo inobatga olinishi zarur. Har bir atama va ibora o'z milliy huquqiy an'analari va madaniy nuanslari bilan bog'liq bo'lgani uchun, faqat shunday yondashuv bilan terminologiya to'g'ri va ishonchli tarzda tadqiq qilinishi mumkin. Bu, ayniqsa tillararo tarjimada semantik xatoliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. [10]

Shu bilan birga, yuqoridagi yechimlar integrativ tarzda qo'llanilganda, huquqiy matnlarni parallel korpuslarda tadqiq qilish samaradorligi va natijalarining ilmiy ishonchliligi sezilarli darajada oshadi.

Xuosa. Parallel korpuslar huquqiy matnlar terminologiyasini tadqiq qilishda samarali vosita bo'lsa-da, ularning qo'llanilishi bir qator muammolar bilan bog'liq: terminologik tafovutlar, sintaktik murakkablik, kam resursli tillar va tarjimon subyektivligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun terminologik glosariylar, ekspertlar bilan hamkorlik, avtomatlashtirilgan tahlil vositalari va yangi parallel korpuslar yaratish tavsiya etiladi. Shu yondashuvlar huquqiy matnlar terminologiyasini yanada aniq va ishonchli tadqiq etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baker, M. Corpora in Translation Studies: An Overview and Some Suggestions for Future Research // Target. – 1995. – Vol. 7, No. 2. – P. 223–243.
2. Johansson, S. Seeing Through Multilingual Corpora: On the Use of Corpora in Contrastive Studies. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2007. – 340 p.
3. Šarčević, S. New Approach to Legal Translation. – The Hague: Kluwer Law International, 1997. – 308 p.

4. Cao, D. Translating Law. – Clevedon: Multilingual Matters, 2007. – 248 p.
5. Bowker, L. – Ottawa: University of Computer-Aided Translation Technology: A Practical Introduction. Ottawa Press, 2002. – 195 p.
6. McEnery, T., Hardie, A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 292 p.
7. Fung, P. Parallel Texts and Translation Studies // Journal of Pragmatics. – 2010. – Vol. 42, No. 4. – P. 1021–1035.
8. Resnik, P., Levow, G., Olsen, M. Parallel Corpora and Low-Resource Languages // Computational Linguistics. – 2010. – Vol. 36, No. 1. – P. 55-83.
9. ISO 704:2009. Terminology Work – Principles and Methods. – Geneva: International Organization for Standardization, 2009. – 64 p.
10. United Nations Treaty Collection. Official Legal Texts and Multilingual Treaties. – New York: United Nations, 2005–2023. – Elektron hujjatlar to‘plami.
11. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi (Lex.uz).
12. O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari. – Toshkent, 1995–2024. – Elektron manba.